QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR KENGASHINING QARORI

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ MINISTRLER KEŃESINIŃ QARARÍ

2024 - yil 15 - may 351-13-0-Q/24 Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

Beruniy tumani hududidagi ovul fuqarolar yig‘inlarining bosh reja loyihalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-sentabrdagi “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023 — 2027 yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-299-sonli qarorining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan dasturi asosida 2023-yilda “Qishloqqurilishloyiha” bosh loyiha instituti DM tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani hududidagi “Sarkop”, “Shobboz”, “Tinchlik” va “Beruniy” ovul fuqarolar yig‘inlarining bosh reja loyihalari ishlab chiqilishi bilan bir vaqtda, qishloq (ovul) aholi punktlarini batafsil rejalashtirish loyihalarini hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik kengashining bayoni va tuman hokimligining jamoatchilik muhokamasi bayonnomalari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 25-martdagi 03-07/01-831-son xatini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 21-moddasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to‘g‘risida”gi Qonunining 35-moddasiga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Qishloqqurilishloyiha” bosh loyiha instituti DM tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani hududidagi “Sarkop”, “Shobboz”, “Tinchlik” va “Beruniy” aholi punktlarining batafsil rejalashtirish loyihalarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik kengashining bayoni va tuman hokimligining jamoatchilik muhokamasi bayonnomalari inobatga olinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining katipal qurilish va

kommunikatsiya masalalari bo‘yicha kotibiyati (Aytbaev) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (A.Kurbanbayev) bilan birgalikda mazkur qarorning 1-bandida nazarda tutilgan shaharsozlik hujjatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qarg‘i Kengesiga tasdiqlash uchun kiritsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (Kurbanbayev), Kadastr agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (Tleuov), Davlat Kadastrlar palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (Urunbaev), Beruniy tumani hokimligi (I.Xidirov) bilan birgalikda hududlarda yer tanlash, qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirishda batafsil rejalashtirish loyihasiga qat’iy amal qilinishini ta’minlasinlar.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklatilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi **F.Ermanov**